

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10862908>

TIBBIYOT TEXNIKUMLARIDA O‘QUVCHILARNING KASBIY MADANIYATINISHAKLLANTIRISH METODIKASI

Saidvaliyeva Shaxlo Baxtiyor qizi

Guliston Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat

sog‘ligini saqlash texnikumi o‘qituvchisi

e-mail: shahlosaidvaliyeva@g-mail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada tibbiyot bilim yurtlarida ta’lim olayotgan talaba o‘quvchilarning kasbiy malaksini oshirishga qaratilgan fikr mulohazalar va muommolar yoritilib berilgan. Kasbiy malaka oshirish va kasbga nisbatan ham madaniyat ham sadoqat bilan hurmatda bo‘lish kerakligi to‘g‘risida fikrlar bayon qilingan

Kalit so‘zlar: *kasbiy malaka, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, kasb malaksini rivojlantirish markazlari, metodika, pedagogi mahorat*

ABSTRACT

In this article, opinions and problems aimed at improving the professional skills of students studying in medical institutions are highlighted. Opinions were expressed about professional development and the need to respect culture and profession.

Key words: *professional qualification, National Personnel Training Program, professional qualification development centers, methodology, pedagogical skills*

KIRISH

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda jamiyat hayotining ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy istiqlol g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillarini hayotga joriy etish, yurtdoshlarimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbida Vatanimiz taqdiri va kelajagi uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi. Bu jarayonda Respublika Ma'naviyat ma'rifat markazi, uning joylardagi tuzilmalari hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan muayyan ishlar amalga oshirilganini qayd etish lozim. Tibbiyot hodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi miqyosida o'tkazib kelinayotgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning barchasi markazda faoliyat olib boruvchi professor-o'qituvchilar, ilmiy-tadqiqotchilar, klinik ordinatorlar va ma'muriy xo'jalik bo'limi hodimlari hamda tinglovchi kursantlarning siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishga, ularning ma'naviy dunyosini boyitish va tafakkur doirasini yanada yuksaltirishga yo'naltirilgan. Shu bois, professional ta'limda tibbiyot texnikumlari va kollejlarda tibbiyot hamshiralarini tayyorlash mazmunini takomillashtirish, ularning, kasbiy madaniyatini shakllantirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya berish usullarini tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Yurtimizda shifokorlik kasbi eng muhim va eng dolzarb bo'lgan kasb hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, jahon adabiyoti va san'ati durdonalarini bilish, tarixni chuqur tahlil eta olish bilan birga davlat siyosatiga munosabatini namoyon qilish, jamiyatda tinchlik osoyishtalik va farovonlikka erishish yo'lida mehnat va ijod qilish faqat yuksak manaviyatli insonlarga xosdir. Ana shu ma'noda texnikumizda o'tkaziladigan tadbirlarga taniqli adabiyot namoyondalari shoir va yozuvchilar, ko'zga ko'ringan yirik fan va davlat arboblari, san'at ustalari tashrif buyurishadi. Viloyatimizda faoliyat yurituvchi tibbiyot texnikumi sahnasida namoyish etgan spektakllari ishtirokchilarda katta ta'surot uyg'otadi va ma'naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Markazimizda har oyda reja asosida ma'naviyat kunlari, turli xil tadbirlar o'tkaziladi. Mazkur tadbirlar jamoani hamjixatlikda institutimizni gullab

yashnashi va ravnaqi uchun xizmat qilishga undaydi hamda yangi marralar sari chorlaydi, tadbir davomida professor-o'qituvchilar, xodimlar, aspirantlar va klinik ordinatorlar faol ishtirok etishadi. Markazning barcha kafedralarida tashkil etiladigan o'quv jarayoni dars jadvaliga 6 soatlik ma'naviyat va ma'rifat mashg'ulotlari kiritilgan. Mazkur soatlarda Prezidentimiz asarlari va ma'ruzalari, davlatimiz siyosati, shifokor ma'naviyati, komil inson g'oyasi, milliy istiqlol g'oyasi kabi mavzularda mashg'ulotlar kafedra professorlari va dotsentlari tomonidan olib boriladi. Tibbiyot texnikumimizda olib borilayotgan amaliy bilimoshirishga oid tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etishda, direktor, xodimlar kasaba uyushmasi, Faxriylar Kengashi, Xotin-qizlar qo'mitasi va O'zbekiston Yoshlar Ittifoqi boshlang'ich tashkiloti faol qatnashib kelishmoqda. [4].M.P.Imomov tomonidan kollej o'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilib, kollej o'quvchilarida kasbiy madaniyat shakllanganligi holati va uni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari shart-sharoitlari aniqlangan. Shuningdeq "Texnikum o'quvchilarida kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy madaniyatni rivojlantirish" maxsus o'quv kursi va uning dasturi ishlab chiqilgan [5].Tibbiyot yo'nalishdagi professional ta'lim muassasalarida o'quvchilarni tibbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy, konseptual va amliy o'rganilsada, tibbiyot texnikumlari va kollejlarda bo'lajak hamshiralarni tayyorlashda ularning kasbiy madaniyatini shakllantirish masalasi maxsus o'rganilmagan va bu borada qilingan ishlar samarasi yo'q.

NATIJALAR

Tibbiyot talabalarining ham kasbiy ham amliy malakasini rivojlantirish markazi faoliyatining asosiy yo'nalishlari etib belgilandi:

- sog'liqni saqlash tizimida faoliyat ko'rsatuvchi rahbar xodimlar va tibbiyot xodimlari hamda tibbiy muhandis-texnik xodimlarning malakasini oshirish, qayta tayyorlash, shuningdek ushbu yo'nalishda faoliyat ko'rsatuvchi muassasalar faoliyatiga tashkiliy-metodik rahbarlik qilish;

- kadrlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash ta'lim jarayonlarini tashkil etishda ilm-fanni hamda sog'liqni saqlash sohasida innovatsiya ishlarini keng joriy etish;

- ta'lim jarayonini nazariy va amaliy ko'nikmalarning uzviyligida tashkil etish hamda AKT, masofadan o'qitish va telemeditsina uslublarini o'quv jarayoniga keng tatbiq etish;

- sog'liqni saqlashning dolzarb yo'nalishlari bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish hamda ilmiy tadqiqotlar natijalarini tibbiyot amaliyotiga tatbiq etish.

MUHOKAMA

O'qitish metodlari bilimlarni berish usuli sifatida talabalarning ilmiy bilish faoliyatiga rahbarlik qilish hamda o'quv jarayonida pedagogning talabalarga ta'sir ko'rsatishga qaratilgan bo'ladi. O'rganish metodlari esa ilmiy bilish faoliyati usuli sifatida, talabalarning bilim, malaka va ko'nikmalarni ijodiy egallashiga qaratilgan bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi vaqtdagi taraqqiyotning juda tez rivojlanishini va sodir bo'layotgan o'zgarishlarni hisobga oladigan bo'lsak, bizning har bir kunimiz va har bir onimiz kuchli axborot oqimi va innovatsiya ta'siri ostida o'tmoqda. Shuning uchun zamonaviy bilimlarni egallashda va takomillashtirishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish – bugungi kunning talabiga aylandi. "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" hamda O'zbekiston Respublikasining "ta'lim to'g'risida"gi qonuni, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga (AKT) oid qonunlar, Prezident qarorlari va farmonlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari zimmamizga shu mas'uliyatni yuklaydi. Bo'lajak hamshiralarning kasbiy madaniyati tashkil topgan ko'rsatgichlar darajasi va asosiy tizimli komponentlariga quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- intellektual rivojlanish darajasi (eng avvalo, tafakkurning rivojlanishi);
- kasbiy faoliyatning har tomonlama tashkil topishi va darajasi;
- asosiy kasbiy etika, ma'naviy harakter va odob madaniyati;
- o'zaro munosabat madaniyati;

XULOSA

Xlosa qilib aytadigan bo'lsak, bo'lajak hamshiralarning va kichik tibbiy xodimlarning kasbiy madaniyati uch bosqichda rivojlanadi: **dastlabki bosqich** – kasbiy faoliyat bilim, ko'nikma va malakalarini kompetentlik darajasida egallash, kasbiy va umumiy kompetentlikni egallash bosqichi (o'quv rejadagi barcha fanlar bo'yicha shakllanadi). **Keying bosqich** – kasbiy faoliyatda o'z-o'zini rivojlantirish, shuningdeq kasbiy faoliyatda bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llash (o'quv va dimlom oldi amaliyotlarida shakllanadi) . **Oxirgi bosqich** - kasbiy faoliyat va kasbiy rivojlanish qadriyat darajasida qaraladi ya'ni, kasbiy faoliyatni juda yaxshi amalga oshirish, kasbiy mahorat darajasi (bevosita kasbiy faoliyatda shakllanadi). Kasbiy madaniyatni yaxlit akmeologik hodisa va konsultativ ta'zir sifatida tahlil qilganda qadriyatli yo'naltirilgan jihat dolzarb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5-maydagi «Sog'liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to'g'risida»gi PF-6221- sonli Farmoni Farmoni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).
2. Akbarov N. Texnika oliy o'quv yurti talabalarida kasbiy madaniyatni shakllantirishning pedagogik asoslari: Avtoref. ped.fan.dok dis. – T.: TDPU, 2008. – 45 b.
3. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari: Dis. ped. fan. dok. - Toshkent, 1993. – 364 b.
4. Ishonov Q.L. Pedagogika kollejlarda bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatini shakllantirish texnologiyasi. – T.: Avtoref. Diss. ped.fan.nom. – 45 b.
5. Imomov M.P. Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent., 2021. - 152 b.